

BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGINI DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA IJODKORLIK VA MOTIVATSION QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Bekmuratova Shoxidaoy Ne'matjonovna

Andijon davlat pedagogika institute "Tasviriy san'at va misiq ta'limi" kafedrası
PhD, dotsent shokhida2020@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini differensial yondashuv asosida ijodkorlik va motivatsion qobiliyatlari, tasviriy san'atni o'qitish texnologiyasi, didaktika va metodika haqida yoritilgan bo'lib, talabalar o'zlashtirish darajasining rivojlanish bosqichlari yoritilgan. Buning uchun tasviriy san'at o'qituvchisi eng avval differensial yondashuv, texnologiyasi, didaktika, metodika ijodkorlik va motivatsion qobiliyatlarini haqidagi bilimlarini takomillashtirish va rivojlantirish tomonlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: differensial, tasviriy san'at, ijodkorlik, motivatsiya, qobiliyat, kasbiy-metodik, o'quv-tarbiya ishlari, bilim, ma'lumot, malaka, tasviriy san'at, pedagogik texnologiya.

ЦЕЛЬ ПРОЕКТА – РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ И МОТИВАЦИОННЫХ СПОСОБНОСТЕЙ БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНЫХ ИСКУССТВ НА ОСНОВЕ ДИФФЕРЕНЦИРОВАННОГО ПОДХОДА К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ И МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКЕ.

Аннотация: В данной статье рассматривается профессионально-методическая подготовка будущих учителей изобразительных искусств на основе дифференцированного подхода к развитию творческих и мотивационных навыков, технологии преподавания изобразительных искусств, дидактики и методики, а также этапы развития уровня освоения материала учащимися. Для этого освещаются аспекты совершенствования и развития знаний учителя изобразительных искусств в области дифференцированного подхода, технологии, дидактики, методики, творческих и мотивационных навыков.

Ключевые слова: дифференцированный подход, изобразительные искусства, творчество, мотивация, навыки, профессионально-методическая подготовка, педагогическая работа, знания, информация, навыки, изобразительные искусства, педагогическая технология.

THIS PROJECT IS THE DEVELOPMENT OF CREATIVE AND MOTIVATIONAL ABILITIES OF FUTURE TEACHERS OF VISUAL ARTS AND THE BASIS OF A DIFFERENTIATED APPROACH TO PROFESSIONAL AND METHODOICAL TRAINING

Abstract: *This article discusses the professional and methodological preparation of future teachers of fine arts based on a differential approach to creativity and motivational skills, technology of teaching fine arts, didactics and methodology, and the stages of development of the level of students' mastery are highlighted. For this, the aspects of improving and developing the knowledge of the fine arts teacher about the differential approach, technology, didactics, methodology, creativity and motivational skills are highlighted.*

Keywords: *differential, fine arts, creativity, motivation, skills, professional and methodological, educational work, knowledge, information, skills, fine arts, pedagogical technology.*

KIRISH

Jahonda xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha mo'ljallangan ta'lim konsepsiyasida "bolalarning rivojlanishi, ta'lim olishini individual va tizimli ravishda olib borish juda muhim faoliyat" sifatida e'tirof etilib, sifatli ta'lim berish mexanizmlari ta'lim jarayoniga tadbqiq etilgan. YuNESKO tashkiloti tomonidan bolalar ijodining takrorlanmas, individual qirralarini rivojlantirish maqsadida har yili "Kichik rassomlar ko'rgazmasi" o'tkazilib kelinmoqda. Mazkur tashkilot tomonidan bolalar badiiy ijodini zamonaviy sharoitda o'rganish xalqaro miqyosda targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Respublikamizda so'ngi yillarda zamonaviy san'atshunoslikdagi metodologik yangilanishlar, badiiy intellektdan foydalanish, ijodkorlik va tasavvurlarni rivojlantirish, jahon miqyosidagi ilg'or tajribalar asosida tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Ta'limda zamonaviy va oqilona tizim yaratish, o'qitish metodlari, ta'lim standartlari, darslik va o'quv qo'llanmalarni yangilash zarurligi" ustuvor vazifa etib belgilandi. Natijada tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari kengayadi.

METODOLOGIYA

Shu bilan birga tasviriy san'atda differensial ta'lim jarayoni individual va guruhli shakllarda tashkil etadi. Differensial ta'lim ishtirokchilar mashtabiga ko'ra ikki turga ajratiladi.

1. Ichki differensiatsiya - bir guruh ichida talabalarni kichik guruhlarga ajratish. Bu kichik guruhlar bitta auditoriyada bir xil fanni o'qiydilar, ammo bilim berish metod va vositalari turlicha tanlanadi. Shuningdek, o'quv materialini o'zlashtirishga doir qo'shimcha material va tavsiyalar har bir guruh uchun alohida tanlab olinadi.

2. Tashqi differensiatsiya - talabalarni qiziqishlariga qarab guruhlarga ajratish va har bir guruhni alohida dastur asosida o'qitishni nazarda tutadi. Bunday differensiatsiya asosida odatda elektiv kurslar va darsdan tashqari mashg'ulotlar yoki tor mutaxassisliklar bo'yicha tehsil tashkil etiladi.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini differensial yondashuv asosida optimizatsiyasida rivojlantirishda modulli ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi, rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi, muammoli ta'lim texnologiyasi, o'yinli texnologiyalardan keng ko'lamda foydalaniladi.

Tasviriy san'at mashg'ulotlarida bo'lajak pedagog rasson ijodiy ishlar ishlashga o'rgatishda turli xil shakl va metodlaridnn qanchalik keng va unumli foydalansa, ijodiy ishga nisbatan ularning qiziqishlari ham oshib boradi va samaradorlik darajasi ham yuqori bo'ladi.

Tasviriy san'at mashg'ulotlar jarayonida differensial ta'limni tashkil etishning asosiy tashkiliy shakllaridan biri bu amaliy mashg'ulotlaridir. Differensiallashtirish jarayonida rassom pedagog talabalarning ijodiy qobiliyatlarini o'rganadi, aniqlaydi, tahlil qiladi va tasniflaydi.

Tasviriy san'atda ichki differensiatsiya asosidagi mashg'ulotlarda turli murakkablik darajasidagi topshiriqlar keng qo'llaniladi. Masalan inson qiyfasini sovuq ranglar orqali tasvirlash mavzusini oladigan bo'lsak, talabalarning bu ishga ijodiy yondashish talab etiladi. Boshqa mavzulardan farqli tomoni rangshunoslik, ranglar perspektivasi va koloritini mustaqil bajarish darajasi, mustaqillik darajasi, o'quv material hajmi, talabalarga yordam ko'lamiga ko'ra ham topshiriqlar tabaqalashtiriladi. Bu jarayonlarda differensial ta'lim texnologiyasi rivojlantiruvchi va shaxsni yo'naltirilgan bilan o'ziga hosdir. U orqali muammoli izlanish metodlari, interaktiv metodlar, o'yin metodlari, diskussiya, ijodiy topshiriqlar, intuitin,

simulyatsion, krossvord va viktorina mashqlar differensial ta'lim jarayonida qo'llash uchun samarali hisoblanadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Differensial ta'lim faqatgina ta'lim mazmunini differensiallashtirishni emas, balki ta'limning tashkiliy shakllari (individual, guruhli, frontal), metodlari, o'quv materialini va topshiriqlarni ham differensiallashtirishni taqozo etadi.

Differensial ta'lim umumiy holda quyidagi afzalliklarga ega:

- bilim oluvchilarni rivojlantirish uchun ularning individiml xususiyatlari va qiziqishlariga ko'ra optimal shart-sharoit yaratilganligi,
- o'quv jarayonining samaradorligi;
- bo'lajak pedagoglarning kasbga ijobiy va ijodiy munosabatlarining shakillantirilishi;
- talabalarning pedagogik qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish imkoniyatlarining mavjudligi;
- turli darajada o'zlashtiruvchi talabalarning o'z kuchi va muvaffaqiyatiga ishonchning mavjudligi.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi mashg'ulotlar jarayonining asosiy tashkil etuvchisi va boshqaruvchisi sifatida differensial ta'lim davomida quyidagi vazifalarni bajaradi.

* talabalarning tafakkuri, intellektual darajasi, xotirasi, diqqati, qiziqishi, layoqati va qobiliyatlarini aniqlaydi;

*talabalarni guruhlariga ajratish uchun mezonlarni belgilaydi;

* har bir guruh uchun o'quv materiallari (nazariy ma'lumotlar topshiriqlar, tavsiyalar, mustaqil ishlar)ni tayyorlaydi;

* talabalarning o'zlashtirish darajalarini doimiy ravishda nazorat qiladi va tahlil qiladi;

* o'zlashtirish darajalariga ko'ra talabalarni qayta guruhlaydi.

Tasviriy san'at mashg'ulotlar jarayonida differensiallashtirish bo'lajak rassom pedagogga bir qancha qo'shimcha vazifalar yuklatish bilan birqatorda, uning faoliyati uchun bir qator afzalliklarga ham ega. Birinchidan, o'qituvchi yuqori darajadagi va past darajadagi talabalar bilan ishlashning optimal metodikasiga ega

bo'ladi. Ikkinchidan, muntazam olib boriladigan diagnostik tadbirlar o'qituvchiga faoliyat natijasini ob'ektiv baholash imkonini beradi.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilariga dillerensial ta'lim bilan individual yondashuv birqancha imkoniyatlar yaratadi. Bu jarayonlar natijasida, kuchli intellektual salohiyatga ega bo'lgan talabalarda yangi ijodiy ishlar ishlashga bo'lgan motivatsiya kuchayadi, ish tempi kuchayadi, past o'zlashtiruvchi talabalar uchun muvaffaqiyatga intilish hissi va o'z ustida ishlashga imkoniyatlar paydo bo'ladi.

Tasviriy san'at mashg'ulotlarida dillerensial ta'limning muhim jihati shundaki, har bir talaba konstruksiya, rangshunoslik, perspektiva, kompozitsiyaning asosiy qonun qoidalar tizim sifatida o'qitiladi. Bunda imkoniyatlar doirasini xam puxta o'rganiladi. Ma'lumki tasviriy san'atda kompozitsiya va portrt chizish eng murakkab jarayon hisoblanadi. Talaba bu jarayonlarda o'zining yo'nalishini tanlashi muhim hisoblanadi. Qachonki talaba o'z yonalishini yani tasviriy janrlar, san'at oqim va yo'nalishlardan birini tanlasagina unda o'ziga nisbatan ishonch hosil bo'ladi va o'qituvchi va talabalarining imkoniyatlaridan kelib chiqiladi.

Tasviriy san'atda rangtasvir fani orqali differensiallashtirilgan mashg'ulot quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1-bosqich: motivatsion bosqich. Har bir guruh uchun maqsad yani milliy kiyimdagi inson qiyfasini tasvirlash, bunda portretchi rassomlar hayoti va ijodi to'grisida ma'lunot berish va maqsadga erishish uchun talabalarda motivatsiya hosil qilinadi.

2-bosqich: analiz bosqichi. Ajratilgan guruhlar uchun maxsus ishlab chiqilgan mavzular asosida talabalarining o'zlashtirish darajalari aniqlanadi, o'tgan mavzuga ishlangan ilyustratsiyalar tahlil qilinadi.

3-bosqich: yangi bilimlar berish bosqichi. Bu jarayonda differensiallashtirilgan guruhlar uchun alohida mavzular berib boriladi. Ushbu bosqichda talabalarining o'zlashtirish darajalariga qarab qo'shimcha metodik yordam va tavsiyalar berib boriladi. Har bir mavzuga chuquroq yondashadilar.

4-bosqich: mustahkamlash bosqichi. Yangi o'zlashtirilgan bilimlar turli darajadagi didaktik materiallar asosida mustahkamlanadi.

5-bosqich: natijalarni baholash bosqichi. Bu jarayonda tabaqalashtirilgan turli murakkablik darajasidagi illyustratsiyalar va eskizlar orqali ularning o'zlashtirish imkoniyatlari aniqlanadi.

6-bosqich: refleksiya bosqichi. Bu jarayonda talabalarning ijodiy topshiriqlari bajarilganlik darajasi o'rganiladi. Bunda tekshiruvlar yoyma ko'rik orqali amalga oshiriladi buning avzalligi o'z- o'zini baxolash va solishtirib xatolarini anglashga yordam beradi.

7-bosqich: differensiallashtirilgan topshiriqlar va mustaqil ishlarni tekshiruv natijasiga ko'ra odiydan murakkablik darajasida doir differensiallashtirilgan mavzular muslaqil ishlashga berib boriladi.

Tasviriy san'at mashg'ulotlarining o'ziga xosligini xisobga olib differensiallashgan topshiriqlarni uch toifaga ajratib ko'rsatishimiz mumkin.

1-toifa topshiriqlar: O'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy kompozitsiyalar janrlar, rangtasvir turlari, oqim va yo'nalishlarga mos ravishda interaktiv topshiriqlar. Bunday topshiriqlar yuqori darajadagi guruhga beriladi.

2-toifa topshiriqlar: o'rta darajada o'zlashtiruvchi talabalar uchun mo'ljallangan bo'lganligi sababli bu toifadagi topshiriqlar tasviriy san'at tur va janrlari ular uchun mos keladi. Bunda tasviriy san'at janrlarida ijod qilgan rassomlar asarlari tavsiya berilib boriladi.

3-toifa topshiriqlar: past o'zlashtiruvchi talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, bu topshiriqlar birmuncha osonlik darajasiga ko'ra rassomlar ijodidan nusxa ko'chirish beriladi. Topshiriqlar, asosan, reproduktiv harakterda bo'ladi. Bilamizki har bir narsaning o'z qonun qoidalari bo'ladi bu jarayonda xam nusxa ko'chirish qoidalariga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

Yuqorida aytib o'tkanimizdek tadqiqotimiz davomida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini differensial yondashuv asosida optimizatsiyasini pedagogik faoliyatga tayorlashda mutaxassislik fanlarini differensiallashtirib o'qitish borasida tadqiqotlar olib bordik va bu boradagi amaliy ishiarni tashkil etishda bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisi quyidagi vazifalarni amalga oshirishi maqsadga muvofiq ekanligini aniqladik:

- tasviriy san'atda differensial ta'lim, differensiallashtirish va ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilar shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holda individual yondashuv asosida tabaqalashtirib o'qitishga doir mavjud nazariy va amaliy tajribalarni o'rganish, tahlil qilish, umumlashtirish va fan xususiyatlaridan kelib chiqqan hoida amaliyotda qo'llash mexanizmlarini ishlab chiqish;
- tasviriy san'atda differensial ta'limning ta'lim oluvchilar, jamiyat va umumdavlat miqiyosidagi ahamiyatli jihatlarini aniqlash;
- tasviriy san'atda ta'lim oluvchilar turli xususiyatlariga ko'ra differensiallashtirish hamda differensial ta'limni tashkil etishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar tayyorlash;
- tasviriy san'atda mashg'ulotlar jarayonini differensiallashtirib tashkil etishning tamoyillari, yo'nalishlari, mazmuni, tashkiliy shakllari, vosita va metodlarini tanlash;
- tasviriy san'atda differensial ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan, rivojlantiruvchi, muammoli, integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llarini ishlab chiqish;
- tabaqalashtirilgan guruhlar bilan ishlashga doir differensial pedagogik ta'lim mazmuniga mos topshiriqlar va nazariy-metodik, keyslarini tayyorlash;
- talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda individual yondashuv tashkiliy shakllarini ijtimoiy taraqqiyot, ilm-fani, ishlab chiqarish talablariga moslashtirishga yo'naltirilgan metodikani ishlab chiqish;
- talabalarning individual xususiyatlari, qiziqishlari, pedagogik layoqat va qobiliyatlarini rivojlantirishga va muayyan ijtimoiy pedagogik faoliyatga yo'naltirishga xizmat qiladigan nazariy va metodik tavsiyalar tayyorlash hamda ommalashtirish.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda differensiallashtirib mashg'ulotlar olib borish ularning kasbiy tayyorgarlig optimizatsiyasi muvaffaqiyatli kechadi:

1. Tasviriy san'atda differensial ta'limni tashkil etish uchun bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini metodik jihatdan tayyorlash zarur.

2. Mutaxassislik fanlaridan turli xususiyatlariga ko'ra differensiallashtirilgan video materiyallar yaraltshi shart.

3. Talabalarni tabaqalashgan guruhlariga ajratishda faqat sinov natijalariga tayanmasdan, o'qituvchilar va talabalarning fikrlarini ham inobatga olish lozim.

4. Ijodiy kompozitsiyalarni bajarish davomida talabalarning kommunikativ faoliyati hamda sog'lom raqobatni yo'lga qo'yish kerak.

XULOSA

Tasviriy san'at mshg'ulotlar jarayonida jamiyat xayotida san'atni rivojlantirishda individuallashtirish tamoyillarining tatbiqi sifatida differensial yondashuv zamonaviy pedagogik yondashuvlardan biri hisoblanadi. Tasviriy san'atda talabalarni fazoviy tassavurlarini rivojlantirish bilan birga differensiallashtirish tamoyillari, metodlari asosida ijtimoiy-pedagogik ta'limni tashkil etish muvaffaqiyat omili hisoblanadi.

Tadqiqotimiz davomida tasviriy san'atda differensial yondashuv asosida mahg'ulotlar jarayonini tashkil etishning asosiy maqsadi talabalarning qiziqishlari, ehtiyojlari va qobiliyatlariga ko'ra amaliy faoliyatga o'rgatishdan iborat bo'lib, konstruktiv, safarbarlik, tadqiqotchilik, rivojlantiruvchi, yo'naltiruvchi eng asosiysi ijodkorlik qobiliyatlarini takomillashtiradi.

Faydalanilgan adabitotlar

1. Аришина Е.С. Старовойтова Л.И. Преподаватель университета как субъект формирования готовности студентов к профессиональной деятельности. Проблемы современного педагогического образования. //-2018.№61-4. С. 11-b,]
2. Ximmataliyev D.O., Rajabova L.R. Differensial yondashuv asosida talabalarni ijtimoiy pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini takoinillashtirish. Monografiya. - Toshkent: - 130 b.2023- yil
3. Usmonov O. Komoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi. –Toshkent.: Fan. 1997. 256 b.
4. Dottrens R. Lanseignement indiviendhalisse. Paris. 1986-63 p.
5. Chyennino Chyennini. «Traktat o jivopisi». M.: Prosvesheniye. 1933.-s.76.
6. Xasanov P. Maktabda tasviriy san'atni tabaqalashtiriб ўқитиш. // Халқ таълими журнали. 2003. № 3.-100-103 б.
7. Булатов С.С. Тасвирий сан'ат асарларини таҳлил қилиш жарёнида ўқувчиларнинг мантиқий фикрлашини ривожлантириш методлари \\\ Халқ таълими журнали, 2019 йил, № 4. 68-73 б.